

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

BURXONOV DAVRONBEK BOTIRALI O‘G‘LI

FURAN BIRIKMALARI BILAN OSHLANGAN CHARMLARNI XOSSALARI
VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI

05.06.03 -Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi
(texnika fanlari)

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in technical sciences**

Burxonov Davronbek Botirali o‘g‘li

Furan birikmalari bilan oshlangan charmlarni xossalari va texnologik
xususiyatlari.....3

Бурхонов Давронбек Ботирали ўғли

Технологические особенности и свойства кож дубленых фурановыми
соединениями.....21

Burkhonov Davronbek

Technological features and properties of leathers tanned with furan
compounds.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

BURXONOV DAVRONBEK BOTIRALI O‘G‘LI

FURAN BIRIKMALARI BILAN OSHLANGAN CHARMLARNI XOSSALARI
VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI

05.06.03 -Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi
(texnika fanlari)

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5409 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirov To'liq Jumayevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Adilov Rovshan Irkinovich
texnika fanlari doktori, professor

Xudanov Ulug'bek Oybutayevich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026 yil 23 yanvar soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxjaxon ko'chasi 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz TTYSI ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 268 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxjaxon ko'chasi 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08. e-mail: titlp_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 8 yanvar kuni tarqatildi.
(2026 yil 8 yanvar № 268 raqamli reyesti bayonnomasi).



X.H. Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, t.f.d., professor

N.B. Mirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda charm va mo'yna xomashyolariga ishlov berish texnologiyasida ekologik muammolarga olib kelayotgan, suvda yomon eriydigan, suv havzalarini zaharlovchi xrom oshlovchilarining miqdorini kamaytirish muammolariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda hayvon terilarini jahon bozorida asosiy ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi davlatlar Xitoy, Braziliya, Hindiston, Argentina davlatlari yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida 90 % dan ortiq charm va mo'yna mahsulotlari xrom oshlovchilari ishtirokida ishlab chiqariladi. Bu borada, jumladan suvda yaxshi eriydigan, oqava suvlarini zaharlamaydigan, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, terining strukturaviy elementlari bilan oson kimyoviy bog'lar hosil qiladigan va teri strukturasidan yuvilmaydigan oshlovchilar asosida teriga chuqur ishlov berish texnologiyasiga hamda tayyor mahsulot sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo miqyosida yirik shoxli mol teri xomashyolarini oshlash texnologiyasini takomillashtirish, ish rejimlarini yaxshilash, ilmiy asoslarini yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, mol teri strukturasida kompleks kimyoviy, fizik-mexanik va gigiyenik xossalarni beruvchi oshlovchilarni yaratish va ularni oshlash texnologiyasida qo'llash yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, zaharli xrom birikmalari miqdorini kamaytirish, alternativ materiallardan foydalanish hamda mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda yetishtirilayotgan charm va mo'yna xomashyolarini qayta ishlash asosida, mo'ynachilik mahsulotlarini tayyorlash, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, jumladan mol teri xomashyolarini chuqur qayta ishlash natijasida raqobatbardosh va qimmatbaho charm assortimentlarini kengaytirish orqali eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish"¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish mahalliy yirik shoxli mol teri xomashyolaridan samarali foydalanish, eksportbop va raqobatbardosh, hamda xossalari yaxshilangan charm mahsulotlarini ishlab chiqarish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi PQ-3603 son «Charm va mo'yna ishlab chiqarish sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2023 yil 11 oktabrdagi PQ-331-son «Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021 yil 8 fevraldagi PQ-4982-son «Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni.

tadbirlar to'g'risida»gi va 2024 yil 20 maydagi PQ-181-son "Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishning IV "Nanotexnologiyalar va kimyoviy texnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda to'g'ri keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda charm-mo'yna texnologik jarayonlarini takomillashtirish, jumladan yangi assortimentlarini yaratish, yangi oshlovchi moddalarni teriga ta'sir mexanizmi va qonuniyatlarining asosiy yo'nalishidagi masalalar bo'yicha chet el olimlaridan В.И.Чурсин, Д.В. Шалбуев, Г.Г.Лутфуллина, Г.Р.Рахматуллина, J.M.Morera, D.C.Deselnicu, M.Leca, Z.Moldovan, J.Hoefler, B.Hageman, A.Bacardit, L.Olle, I.P.Fernandes, V.Pinto, H.T.Zhang, R.Guan, M.Ibrahim, O.Osman, M.З.Дубиновский, А.Г.Данилкович, М.И.Кунц, Г.Г.Шлык, С.И.Студеникин, Г.Ф.Есина, A.D. Covington va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda mahalliy sanoat mahsulotlari asosida teri xomashyolariga oshlash jarayonlari uchun funksional moddalarni qo'llash, ularning texnologiyasi va charm mahsulotlari xossalarining tadqiqoti bo'yicha qator olimlar: T.J.Qodirov, A.Y.Toshev, M.I.Temirova, B.G.Ramazonov, F.F.Kazakov, A.O.Haydarov, J.Sh.Azimov va boshqalar mazkur soha ilmining rivojiga munosib hissa qo'shganlar.

Ammo, mazkur tadqiqotlar natijasida yirik shoxli mol terilariga furfurolni oshlovchi sifatida qo'llash ularning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarini tadqiq qilish hamda yirik shoxli mol terilarini furfurol bilan oshlash, xususan mol terilarida an'anaviy qimmatbaho xrom oshlovchisini qisqartirib, o'rniga oddiy furfurol bilan oshlashning texnologik va ilmiy asoslari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining innovatsion loyihalari asosida yirik shoxli mol terilarini furfurol bilan oshlash "Yirik shoxli mol terilarini furfurol asosida oshlash texnologiyasi" (2025 yil, №03/2025) mavzusidagi xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Yirik shoxli mol terilarini furfurol asosida ishlov berish texnologiyasini yaratish va tayyor mahsulotning fizik – mexanik hamda kimyoviy xossalarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

furan birikmalarining oshlovchilik xususiyatini tadqiq etish va optimal variantini tanlab olish;

yirik shoxli mol teri kollageni bilan furfurolning o'zaro ta'sirlashgan mahsulot sturukturasini spektroskopik tahlil etish va o'zaro ta'sirlashgan moddalar xossalarini tadqiq etish;

yirik shoxli mol terilarini furfurol bilan oshlash va tayyor mahsulotning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarini tadqiq etish;

furfurol bilan yirik shoxli mol terilarini oshlash texnologiyasida harorat, davomiylik, suyuqlik koeffitsiyenti, sarfi, parametr va rejimlarini aniqlash;

yirik shoxli mol terilarini furfurol asosida charmni oshlash texnologiyasini ishlab chiqish;

furfurol bilan yirik shoxli mol terilarini oshlashning texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida yirik shoxli mol teri xomashyolari, mahalliy furfurol, sulfat kislota, xrom, osh tuzi, kalsiy soda, bikarbonat natriy, furfurol va boshqalar, yirik shoxli mol teri kollageni bilan furfurolni o'zaro ta'sirlashgan namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida furfurol bilan yirik shoxli mol teri kollagenining o'zaro ta'siri, yirik shoxli mol terilarini oshlash jarayoni, oshlash jarayonida mol teri ko'rsatkichlarini o'zgarishi, yirik shoxli mol terisini oshlashning samarali texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida yirik shoxli mol terilarini zamonaviy optik, elektron mikroskop, DSC tahlil, IQ-spektroskopiya, rentgenografiya tahlili, adsorbsion tahlil hamda fizik- mexanik va kimyoviy xossalarni tahlil qilish, tajribaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

furan birikmalarining oshlovchilik xususiyatini e'tiborga olgan xolda mol terilarida an'anaviy qimmatbaho xrom oshlovchisini qisqartirib, o'rniga furfurol bilan ishlov berish asosida oshlashning takomillashtirilgan texnologiyasi yaratilgan;

xrom (III), furfurol, ishlov berilmagan kollagen, xrom (III) va furfurol asosida ishlov berilgan kollagen namunalarning fizik-kimyoviy xossalari IQ-spektr, DSC va rentgenografik tahlil usullari yordamida aniqlangan;

furfurol bilan ishlov berilgan yirik shoxli mol terilarining g'ovaklar sonini ortishi va o'lchamlarining kamayganligi charm namunalari adsorbsion usul yordamida tahlil etish asosida aniqlangan;

yirik shoxli mol terilarining fizik- kimyoviy va mexanik sifat ko'rsatkichlari tahlil qilish asosida furfurol bilan oshlangan charm namunalarning mustahkamlik chegarasi va gidrotermik barqarorligi yuqoriligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

furan birikmalarining oshlovchilik xususiyatini tadqiq etish natijasida furfurol bilan oshlangan charm namunasining gidrotermik barqarorligi yuqori va optimal variant sifatida tanlab olindi;

furfurol bilan ishlov berilgan kollagen namunalarning IQ-spektr, DSC va rentgenografik tahlil natijalariga ko'ra furfurolning oshlovchilik xususiyati o'rganildi;

yirik shoxli mol terilarini oshlashda furfurolni qo'llash orqali xrom oshlovchisi miqdorini kamaytirishga erishildi;

furfurol asosida yirik shoxli mol terilariga ishlov berish orqali adsorbsion xossalari yaxshilangan charm ishlab chiqarildi;

yirik shoxli mol teri nazorat namunalarga nisbatan tajriba furfurol asosida ishlov berilgan charm namunalari gidrotermik destruksiya darajasi 3 % ga, mustahkamlik chegarasi 10,7 MPa ga va uzilishdagi uzayishi 15,2 % ga oshdi;

furfurol bilan yirik shoxli mol terilarini oshlash texnologik rejim va parametirlari aniqlandi, hamda ishlov berish texnologiyasi ishlab chiqildi;

yirik shoxli mol terilarini oshlash jarayonida furfurolni qo'llash orqali yillik iqtisodiy samaradorlik 76677840 so'mni tashkil etishi hisoblab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yirik shoxli mol terilarini noan'anaviy oshlash texnologiyasini ishlab chiqishda zamonaviy tahlil usullaridan foydalanib, ular asosida natijalar olinganligi, nazariy va eksperimental izlanish natijalarining o'zaro mos kelishi, tavsiya qilingan sinov natijalari va ularning ishlab chiqarishga qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy sanoat mahsulotlari asosida furan birikmalari bilan oshlangan yirik shoxli mol teri kollageni va uning ta'sirlashgan mahsulotlarni xarakterli spektr sohalari siljishlarining muhim tafovutlari infra-qizil, rentgenografik spektrlari va element tahlillari, kollagenning karboksil, gidroksil, amin guruhlari bilan furfurol karbonil guruhi orasida o'zaro vodorod bog'larining hosil bo'lishi, tadqiqot natijalari asosida furfurol kollagen bilan qaytmas ta'sirlashib payvand oqsil mahsuloti hosil qilishi, yirik shoxli mol teri derma morfologik ichki strukturasida furfurol bir maromda taqsimlanishining sodir bo'lishi oraliqlarida furfurol dispers zarrachalar holatida cho'kib o'tirishi, g'ovaklarni qisqarishi tayyor mahsulotni kimyoviy hamda fizik-mexanik xossalarini ortishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mahalliy sanoat mahsulotlari asosida yirik shoxli mol terilarini oshlashda temperatura, vaqt, sarfi, suyuqlik rejim va parametrlari, shuningdek oshlashda furfurol bilan oshlangan charm namunalari tayyor mahsulotining kimyoviy, gigiyenik hamda fizik-mexanik xossalari va raqobatbardosh eksportbop tayyor charm mahsulotlari, poyabzalning ustki qismi uchun charm yuza sirt qismi yaxshilanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarini joriy qilinishi. Yirik shoxli mol terilarini furfurol bilan oshlash texnologiyasi hamda uning yuqori fizik-mexanik ko'rsatkichlar strukturasini o'zgarishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yirik shoxli mol terilariga furfurol bilan oshlash texnologiyasi «O'zcharsanoat» uyushmasi tarkibidagi OOO «TOLUT CHARM» MCHJ va «KARA DERI» MCHJ korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan («O'zcharsanoat» uyushmasining 2025 yil "24" 09. 01-07/2595-son ma'lumotnomasi). Natijada tayyor charm namunalarning mustahkamlik chegarasi 10,7 MPa ga va uzilishdagi uzayishi 15,2 % ga oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar, hamda dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etib, 32 ta rasm, 10 ta jadval va 161 ta adabiyotlardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyatiga asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflanganligi, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilganligi hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida zararli xrom birikmalarini o'zaro almashinish jihatlari va charm ishlab chiqarishda oshlash jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari, oshlashning maqsadi charm ishlab chiqarish, terini yuqori sifat ko'rsatkichlarini xamda kimyoviy materiallarni suvli eritmalarida ketma-ketlik bilan mexanik ta'sir ettirish orqali ishlov berish texnologiyasini tashkil etadi. Yirik shoxli mol terilarini oshlashda ko'p yillik tajribasi, texnologik yechimlarning mavjud bo'lishiga qaramay juda ko'plab miqdorda suvni sarflash, chuchuk suv havzalariga oqava suvlarni tashlash bilan bog'liq bo'lib, hanuzgacha qat'iy o'zgarishlar bo'lmayapti. Ekologik muammolarni hal etishdagi tub o'zgarishlar faqatgina suyuqlik bilan ishlov berishning yoki boshqa yangi texnologiyalarini yaratishdan iboratdir.

Yirik shoxli mol terisining oshlash jarayoni bo'yicha olib borilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra, yirik shoxli mol terilarini oshlash jarayonida reagentlarning Respublikaga chet eldan keltirilishi, buning natijasida ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot tannarxining oshishiga olib kelishi, qolaversa oshlash jarayonida qo'llaniladigan xrom oshlovchilar miqdorini qisqartirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, ushbu keltirib o'tilgan muammolarni yechishda yirik shoxli mol terilariga ishlov berishning oshlash jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bajarishga zarurat hosil bo'lib, qilingan tahlillar natijasiga ko'ra tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olindi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyektlari, uslublarini tanlash va ularni asoslash**» deb nomlangan ikkinchi bobida yirik shoxli mol terilaridan sifatli charm ishlab chiqarishda oshlash jarayonini takomillashtirish maqsadida tanlangan obyektlar tavsifi, furfurol bilan, yirik shoxli mol teri kollageni va u bilan furfurolning ta'sirlashgan mahsuloti, teri to'qimasi, yarim tayyor va tayyor mahsulotning fizik-kimyoviy va mexanik xossalari aniqlashdagi, hamda ularning strukturasini tadqiq etishdagi raqamli elektron mikroskopiya, IQ-spektroskopiya, DSC va rentgenografiya usullarining tasniflari keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Yirik shoxli mol terilarini kollagen bilan furfurolning o'zaro ta'siri va uning tadqiqot natijalarini taxlili**» deb nomlangan uchinchi bobida furfurol tarkibiga kiruvchi moddalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dastlabki nisbatlari tanlanib va asosiy fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan. Furfurol oshlovchilik xususiyatini tadqiq qilish maqsadida u asosida yirik shoxli mol teri kollageniga ishlov berilgan va ishlov berilgan namunalar IQ-spektroskopiya, DSC va rentgenografiya usullari yordamida tadqiqotlar o'tkazilgan.

Tadqiqotda furan birikmalarining fizik-kimyoviy xossalari va kollagen bilan o'zaro kimyoviy bog'lanish xususiyatlarini inobatga olgan holda dastlabki miqdorlari

tanlab olinib, ular asosida yirik shoxli mol terilariga ishlov berildi, hamda ularning fizik-kimyoviy xossalari o'rganilib, natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirildi.


1-jadval

Furan birikmalarini fizikaviy xamda oshlovchilik ko'rsatkichlari

Furan birikmalari	Molekulya r massasi, g/mol	Qaynash harorati, °C	Muzlash harorati, °C	Zichligi (20 °C da), g/sm ³	Gidrotermik destruksiya, °C	Oshlang anlik darajasi, %
Furan	68.07	31.4	-85.6	0.936	57,9	68,2
Furfurol	96.08	161.7	-36.5	1.159	59,3	69,8
Furfuril spirt	98.10	170–172	-20	1.129	57,5	67,7
Tetragidrofuran	72.11	65–67	-108.5	0.889	58,1	68,4

Furan birikmalar sinfiga mansub furan, furfurol, furfuril spirt va tetragidrofuranlarning gidrotermik distruksiyasi hamda oshlash darajasi aniqlandi. Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra furfurolning gidrotermik distruksiyasi va oshlash darajasi yuqori ekanligi tajriba natijalariga asosan. Tadqiqot ishida furfurolning kimyoviy xossalari yuqori ekanligini inobatga olgan holda keying tadqiqotlar furfurol bilan davom ettirildi.

Kollagen bilan furfurolning o'zaro ta'sir natijasi va dastlabki furfurol bilan ishlov berilgan kollagenning IQ-spektroskopiya usuli yordamida tekshirildi va quyidagi 1-rasmda: I-sof kollagen va II-furfurol bilan ishlov berilgan kollagen namunalarning spektrlari o'zaro solishtirildi.



1-rasm. Namunalarning IQ-spektrlari

I-sof kollagen va II-furfurol bilan ishlov berilgan kollagen

Yirik shoxli mol teri kollageni IQ- spektri 3281-3074 sm^{-1} chastotada C=O guruhi va 2935 sm^{-1} chastotada C-H guruhiga tegishli uchta kuchsiz intensivlikdagi sohalar mavjud. 1628-1527 sm^{-1} sohadagi chastotada va 1447 sm^{-1} juda keng sohali yuqori intensivlikdagi bog'langan vO-H gidroksil guruhi kuzatiladi. 1397-1133 sm^{-1} chastotada C-H bog'larning guruhlari bir oz kuchli yutilgan. Shuningdek, uchta 1236 va 1201-1161 sm^{-1} chastotadagi spirt birikmalariga tegishli sohalarda nC-O guruhlarning tebranishlari qayd etilgan. 1080-1030 sm^{-1} chastotadagi 974-921 sm^{-1} sohadagi chastotada C=O valent tebranish va -CHO alkil bog'lari kam intensivlikka


ega. Kollagen IQ- spektrlari taqqoslanganida aniq chuqqilarning mavjudligi yaqqol seziladi 2935-1628 sm^{-1} sohalarda kuchli molekulalararo vodorod bog‘larining sodir bo‘lganligini kuzatish mumkin, namunalar 2-3 spektrlarining 3281-3074 sm^{-1} chastotada keng yoyilib ketgan soha kuzatiladi. Bu kollagenni ichki va molekulalararo vodorod bog‘larining borligi bilan izohlash mumkin.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari shuningdek, charm kollagenining 1029 sm^{-1} chastotasida to‘yinmagan C-O bog‘ning hosil bo‘lganligi kuzatiladi. 506-417 sm^{-1} sohadagi keng cho‘qqilar =N-H guruhining tashqi yassi tebranishlariga muvofiq keladi va kuchli chastotada C=O bog‘ning hosil bo‘lganligi kuzatildi (1.I-rasm).

Furfurol bilan ishlov berilgan kollagening IQ-spektrlari 3295-3073 sm^{-1} chastotada C=O guruhi va 2934 sm^{-1} chastotada C-H guruhiga tegishli keng va kuchsiz intensivlikdagi sohalar mavjud. 2645-2323 sm^{-1} sohadagi chastotada juda keng sohali past intensivlikdagi bog‘langan vO-H gidroksil guruhi kuzatiladi. Shuningdek, 1633, 1538, 1447, 1397, 1334, 1234, 1202, 1131, 1082, 1030, va 921, 876, 844 sm^{-1} chastotalardagi spirt birikmalariga tegishli sohalarda nC-O guruhlarning tebranishlari qayd etilgan. 591-426 sm^{-1} chastotadagi H=O valent tebranish va –CHO alkil bog‘lari kam informatsiyaga ega. Kollagen namunalarining 1-3 spektrlarining 3295-2934 sm^{-1} chastotalarda keng yoyilib ketgan sohalar kuzatiladi. Bu kollagenni ichki va molekulalararo vodorod bog‘larining borligi bilan izohlash mumkin (1.II-rasm).

Xulosa qilish mumkinki, yirik shoxli mol teri kollageni furfurol bilan o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida kollagenni polipeptid, ionlashgan gidroksil, amin guruhlari bilan furfurolning karbonil guruhlari bilan kompleks bog‘lar ham sodir bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda yirik shoxli mol teri kollageni furfurol bilan vodorod bog‘larining hosil bo‘lish ehtimoli ham mavjud.

Yirik shoxli mol teri kollageni bilan furfurolning reaksiyaga kirishib qanchalik mustahkam bog‘lar hosil qila olish qobiliyatini tadqiq qilish maqsadida differensial skanerlovchi kalorimetriya (DSC) usulidan foydalanildi va natijalari 2-rasmda keltirildi.



2-rasm. Namunalarning DSC egri chiziqlari

I-sof kollagen va II-furfurol bilan ishlov berilgan kollagen

Namunalar bo‘yicha olingan termotahliliy tajribalar natijalarini umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, furfurol bilan ishlov

berilgan kollagen ekzotermik va endotermik jaryonlarida harorat ko'rsatkichi sof kollagen namunasiga nisbatan sezilarli darajada past bo'lishiga qaramasdan, furfurol asosida ishlov berilgan kollagen namunalarining ekzotermik va endotermik jarayonlardagi issiqlik oqimi va sohadagi maksimal issiqlik oqimi sof kollagen namunasiga qaraganda sezilarli darajada yuqoriligi tajriba sinov natijalaridan ma'lum.

2-rasmda DSC egri chiziqlariga asosan 2-jadvalda namunalarni differensial-termik tahlil qilishning ekzo (endo) termik effektlari keltirildi.

2-jadval


Namunalarni differensial-termik tahlil qilishning ekzo (endo) termik effektlari

Namuna ko'rsatkichlari	Namunalar	
	I	II
O'rtacha issiqlik oqimi, mW	17,0	14,4
O'rtacha gaz oqimi, ml/min	27,4	11,7
Energiya ajralishining boshlang'ich harorati, °C	73,2/215,3/319,5	280,3
Maksimal chuqqidagi harorati, °C	94,8/230,9/330,5	284,1
Energiya yutilish haroratining minimumi, °C	118,9/240/342,9	289,4
Jarayondagi issiqlik oqimi, mW	2,9/1,3/1,9	13,7
Sohadagi maksimal issiqlik oqimi, mW	31,7	50,8

Izoh: Bu yerda: I-sof kollagen hamda II –furfurol asosida ishlov berilgan kollagen namunalari DSC tahlil natijalari

Natijalardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, furfurol asosida ishlov berilgan kollagen namunasida harorat intervallarining ortishi, hamda issiqlik oqimining yuqoriligi bilan sof kollagen namunasidan farqini tajriba sinovlar orqali yaqqol ko'rish mumkin. Bunda, tabiiyki, kollagen namunasida turli tabiatga ega kimyoviy bog'larning parchalanishi amalga oshadi.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida yirik shoxli mol terilarini furfurol asosida ishlov berish darajasining xarakteristikasini aniqlash uchun g'ovak organik birikma kollagen strukturasini choklash jarayoni ularning rentgenografik difraktogrammalari orqali o'rganildi. Ko'rsatilgan refleks kollagen rentgenogrammasining ekvatorida joylashgan. Kollagen difraktogrammasidagi ekvatorial refleks asosiy refleks hisoblanadi (3-rasm). Shu refleksga mos keluvchi tekisliklararo masofa kollagenni furfurol asosida oshlash-choklash darajasiga bog'liq holda sezilarli darajada o'zgardi.



3-rasm. Namunalarning rentgenografik tahlil natijalari

I-kollagen, II- furfurol asosida ishlov berilgan kollagen namunalari

Yuqorida keltirib o'tilgan tajriba natijalariga ko'ra 3. II-rasm, ya'ni furfurool asosida ishlov berilgan kollagen namunasi amorf holatdan ma'lum darajada kristal holatiga o'tganligidan dalolat beradi.

Asosiy ekvatorial refleksga muvofiq keluvchi qiymat birinchi va uchinchi aminokislotalar zanjirlarini atom guruhlar orasidagi masofasida ikkitadan peptid vodorod bog'larini hosil qilib, va aynan shunga mos kelish natijasi sifatida nomoyon bo'lgan. Furfurool bilan ishlov berilgan kollagen difraktogrammasida ma'lum chastotada ekvatorial refleksning namoyon bo'lishi kollagenni oshlash-choklanishligidan dalolat berib, uning struktura zonalarini qayta tartiblanishiga olib kelish natijasi deb qarash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, furfurool bilan kollagenga ishlov berilganda uni qayta tartibga keltirib, struktur o'zgarishlar darajasini xarakterlovchi hamda ekvatorial refleks qiymatini asosiy ko'rsatkichi sifatida qabul qilish mumkin.

Dissertatsiyaning «**Yirik shoxli mol terilarini oshlash texnologiyasi, rejim parametrlari, ekspluatasion xossalari va samaradorligini aniqlash**» nomli to'rtinchi bobda xomashyo tanlash, unga furfurool asosida ishlov berish texnologiyasi, yirik shoxli mol terilarini fizik-kimyoviy, mexanik va adsorbsion ko'rsatkichlariga furfuroolning ta'siri, yirik shoxli mol terilarini furfurool asosida oshlash texnologiyasi va uning ekspluatatsion xossalari va texnik-iqtisodiy samaradorligi hisoblangan.

Yirik shoxli mol teri kollageniga furfuroolning ta'siri, furfuroolning dastlabki I, II, III xil ulushi bo'yicha yirik shoxli mol terilari namunalariga ishlov berildi.

Tadqiqot ishining tajriba namunalarini oshlash jarayonida charmning fizik-mexanik va kimyoviy xossalarini taqqoslash uchun bir xil navdagi terilar tanlandi va oshlash jarayonlari amalga oshirildi. Bunda suyuqlik koyefisiyenti (SK)-0,7 suyuqlik harorati - 25 °C, asosligi 36-42 % li va furfurool oshlovchi – 2,5%, NaCl (tuz) – 4,5 %, xrom oshlovchi – 0,5 %, miqdordagi kimyoviy reagentlar yordamida 12 soat mobaynida ishlov berildi va gidrotermik destruksiya 100 °C dan oshgunicha oshlash jarayoni olib borildi. Qolgan barcha jarayonlar an'anaviy uslub asosida olib borildi. Oshlanish jarayonining samarasini teri to'qimasining gidrotermik va tayyor mahsulotning kimyoviy va fizik-mexanik ko'rsatkichlarini o'zgarishi orqali baholandi.

Yirik shoxli mol terilarini fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga furfuroolning ta'siri o'rganilib natijalari 3-jadvalda keltirib o'tildi.


3-jadval

Charm namunalarining fizik-kimyoviy xossalari

Namunalar Ko'rsatkichlar	tajriba			nazorat	GOST 939-2021
	I	II	III	IV	
Gidrotermik destruksiya, °C	115,1	114,5	116,0	113,0	100,0 dan kam emas
Mineral moddalar miqdori, %	7,619	6,462	6,994	7,855	3,5 dan kam emas
Yog' moddalar miqdori, %	8,12	5,41	4,73	9,25	4,0-16,0
Namlik miqdori, %	12,81	13,09	13,04	13,17	10,0-16,0

Olingan natijalarga ko'ra namunalar tarkibidagi namlik, yog' moddalar, mineral moddalari deyarli bir-biriga yaqin va davlat standartlariga mos keladi. Namunalarining gidrotermik destruksiya harorati tajriba namunalarida mos ravishda 115,1, 114,5, hamda 116,0 °C ni va nazorat namunasida 113,0 °C ligi tajriba sinov natijasi asosida aniqlandi. Natijalardan ko'rish mumkinki tajriba namunasining III variantida nazorat namunasiga nisbatan 3 °C ga yuqoriligi kuzatildi. Bu ko'rsatkichlar ishonchligini tekshirgan holda GOST 939-2021 ga solishtirildi va barcha ko'rsatkichlar mos keldi.

Tabiiyki charm sifatini baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bu mustahkamlik va uzilishdagi uzayishi hisoblanadi. Shu sababli oshlangan yirik shoxli mol teri nazorat va tajriba namunalarining uzilishdagi uzayishi, hamda mustahkamlik chegaralari standart namunalari tayyorlanib Yaponiyaning WDW-5E uzish mashinasi yordamida aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Uzilishdagi uzayishning mustahkamlik chegarasiga bog'liqliklari
tajriba I,II,III va nazorat IV namunalari

Bunda tajriba namunalari uzilishdagi uzayishining o'rtacha qiymatlari mos ravishda 60,3, 62,7, va 75,2 % hamda mustahkamlik chegaralari 32,0, 35,02, va

40,4 MPa ni tashkil edi. Nazorat namunasida esa o'rtacha uzilishdagi uzayishi 59,9 % va mustahkamlik chegarasi 29,7 MPa ekanligi tajriba sinov natijalari asosida aniqlandi. Bu natijalar GOST ga mos kelganligi tajriba sinovlari asosida aniqlandi va grafiklarda keltirib o'tildi. Natijalarga ko'ra tajriba namunasi III-varianti I, II variantlarga nisbatan mustahkamlik chegarasi va uzilishdagi uzayishi yuqori ekanligini, xamda bu namuna nazoratnamunasiga nisbatan uzilishdagi uzayishi 15,3 % ga, mustahkamlik chegarasi esa 10,7 MPa ga yuqori ekanligi tajriba sinov natijalariga asosan aniqlandi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki furfurol charmga yumshoqlik bergan holda uning uzilishdagi uzayishini yaxshilandi, oshlovchi tarkibiga kiruvchi boshqa moddalar ham derma tarkibida kompleks bog'lar hosil qilgan holda uning gedrotermik destruksiysasi va mustahkamlik chegaralariga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Shunday qilib, birinchi marotaba yirik shoxli mol terilariga oshlash uchun furan birikmalaridan, yani furfurol dan ishlatish imkoniyati urganildi. Fizik-mexanik sinov natijalarini taqqoslash orqali furfurol ishtirokida oshlangan charmlar yuqori gedrotermik barqarorlik va mustahkamlik ko'rsatgichlariga ega ekanligi isbotlandi. Tadqiqot ishlari natijasi furfurolni yaxshi texnologik xossalari shuningdek, qisman bo'lsada xrom oshlovchisi bilan almashtirish imkoniyati ularni keng tarzda yirik shoxli mol terilarini oshlashda tavsiya etish mumkin.

Yirik shoxli mol terilarini furfurol bilan oshlashning adsorbsion tahlilida dermaninig g'ovakli strukturasi o'rganish maqsadida furfurol bilan oshlangan tajriba yirik shoxli mol teri va an'anaviy usulda oshlangan nazorat yirik shoxli mol terilari tanlab olindi va natijalari 4-jadvalda keltirildi.

4-jadval

Furfurol bilan ishlov berilgan tajriba va nazorat charm namunalarning adsorbsion xarakteristikalar

Ko'rsatkich \ Namuna	tajriba			nazorat
	I	II	III	IV
Monoqavat sig'imi mol/kg	3,084	2,822	2,682	3,549
Solishtirma yuza, m ² /g	200,48	183,48	174,38	230,72
Mikrog'ovak, sm ³ /gr (W _o)	0,1527	0,1414	0,1314	0,1712
To'yinish hajmi, mol/kg (V _s)	0,2255	0,2152	0,2025	0,2638
Mezag'ovak, sm ³ /gr (W _{me})	0,07	0,07	0,07	0,09
G'ovak radiusi, nm	2,25	2,35	2,32	2,29

Natijalardan ko'rish mumkinki, furfurol tarkibiy qismlarining turlicha qiymatlari bilan ishlov berilgan yirik shoxli mol teri tajriba namunalarning sorbsion xossalari nazorat namunasinikiga nisbatan kamligini, hamda g'ovak radiusi kichrayib, g'ovaklar sonining oshganligini inobatga olgan holda tajriba namunalari derma strukturasi zich bog'lamlar hosil bo'lgan va mexanik xossalarning yaxshilanishi sababli charm ekspluatatsion davrining oshishiga xizmat qiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan natijalarni inobatga olgan holda optimal texnologik variant

sifatida tajriba III-namunasi tanlab olindi. Demak, Mak-Ben-Bakra qurilmasida olib borilgan adsorbsiya izotermalarini aniqlash tajribasida, BET usulida olingan natijalarning ko'rsatishicha an'anaviy usulda oshlangan yirik shoxli mol terilar tajriba furfurol asosida oshlangan yirik shoxli mol teri namunalari nisbatan katta sorbsion xususiyatga ega ekanligi suv bug'lari bilan olib borilgan tajribalarda aniqlandi.

5-jadval

Yirik shoxli mol terilariga ishlov berish texnologik parametr va rejimlari

№	Ishlab chiqarish jarayonlari	Jihozlar nomi	Suyuqlik ko'effitsenti	Harorat, °C	Davomiylik, soat	Kimyoviy moddalar va ularning konsentratsiyasi
1	2	3	4	5	6	7
1	Dastlabki ivitish	Osma baraban BX-3200-K	1.5-2 3.5-4	20-22 20-22	18-20 24-32	Natriy sulfid -0.5-0.8 g/l, antiseptik BIOCID HP – 0.1 %, SFM WETT RAPID SP – 0.3-0.5 %.
2	Yuvish	Osma baraban BX-3200-K	1.5-2	20-22	2-2.5	Suv
3	Ivitish	Osma baraban BX-3200-K	1.3-1.5	20-22	8.5	Natriy karbonat-1.4-1.6 %
4	Kullash	Osma baraban BX-3200-K	1.3-1.5	20-22	10-12	Kalsiy gidroksidi 96%li – 4.6 %, natriy sulfid 60 %li – 3.2%
5	Mezdralash	Mezdralash mashinasida	-	-	-	-
6	Ikkilash	Ikkilash mashinasida	-	-	-	-
7	Go'lak vaznini aniqlash	Tarozi	-	-	-	-
8	Yuvish	Osma baraban BX-3200-K	1.2 – 1.5	25 - 26	30-60 min.	Oqar suv
9	Kulsizlantirish	Osma baraban BX-3200-K	1.2-1.5	35-37	30 min.	Ammoniy sulfat – 2.5 – 3.5 %
10	Yuvish	Osma baraban BX-3200-K	1.2-1.5	35-37	1-1.5	Suv
11	Yumshatish	Osma baraban BX-3200-K	1.2	35-37	1-1.5	Pankreatin 0.015-0.03% yoki protasubtimin G-3x-0.2 %, SAM-0,5 %.
12	Yuvish	Osma baraban BX-3200-K	1.2-1.5	22-24	30-60 min	Suv


5-jadvalning davomi

1	2	3	4	5	6	7
12.1	Pikeldan oldin oshlash	Osma baraban BX-3200-K	0,7	25-30	1-2	Natriy karbonat (Na_2CO_3)-0,2 %, Furfurol-2,5%,
13	Pikellash	Osma baraban BX-3200-K	0,6-0,7	22-24	1.5-2	Natriy xlorid-6-7%, sulfat kislota-0.7-0.7 %, chumoli kislotasi-0.3 %
13.1	Oshlash	Osma baraban BX-3200-K	0,7	25	12	Tuz-4,5 %, Furfurol-2,5 %,
14	Oshlash	Osma baraban BX-3200-K	0.6-0.7	20-22	10-12	Asosligi 32 % li xrom oshlovchi-2.2-2.5 %, natriy karbonat-0.3 %,
14.1	Xromdan keyin oshlash	Osma baraban BX-3200-K	0,7	25-30	12	Tuz-4,5 %, Furfurol-2,5 %, Asosligi 32 % li xrom oshlovchi-0,5 %,
15	Yotqizish	Taxmon	-	-	8	-
16	Saralash	Stol	-	-	-	-
17	Siqish	Valikli siqish mashinasi	-	-	-	-
18	Qirtishlash	Qirtishlash mashinasi	-	-	-	-

Taklif etilgan texnologiya OOO«TOLUT CHARM» MCHJ da qullaniladigan yirik shoxli mol terilarini ishlab chiqarishning an'anaviy texnologiyasi qabul qilinib, unda oshlash jarayonida furfurolni oshlovchi sifatida ishlatilishi, nafaqat oshlash jarayonini soddalashishi, balki qimmat baxo xrom oshlovchisini sarfini qisqartirish, uch valentli xrom birikmalarini suv xavzalariga tushishini maksimal darajada kamaytirishga olib keladi.

Keltirib o'tilgan yirik shoxli mol terilariga ishlov berish texnologik reglamentiga asosan yirik shoxli mol terilariga ishlov berishning texnologik sxemasi ishlab chiqildi.

Mazkur taxnologik tadqiqotda pekillash jarayonida teri massasiga nisbatan 22 °C haroratdagi SK=0,7 miqdorda suv, NaCl-7%, sulfat kislota-0,7-0,7 %, chumoli kislota 0,3 % miqdordagi kimyoviy moddalar ishtirokida yirik shoxli mol terilarini biri 1 chi, yani pekildan oldingi oshlash jarayoni, 2 chi jarayon esa pekildan keyingi oshlash jarayoni amalga oshiriladi va 3 chi xromdan keyingi jarayon, suyuqlik koyefitsiyenti (SK)-0,7 suyuqlik harorati - 25 °C, furfurol – 2,5 %, NaCl (tuz) – 4,5 %, asosligi 32 % li xrom oshlovchisi– 0,5 % miqdordagi kimyoviy reogentlar yordamida 12 soat mobaynida oshlash jarayoni olib borildi. Qolgan barcha jarayonlar an'anaviy uslub asosida olib borildi.



1- rasm. Furfurol bilan yirik shoxli mol terilarini oshlash texnologik sxemasi

Taklif qilingan, yangi furfurol bilan oshlangan yirik shoxli mol terilarining ixcham texnologiyasi tejamkor va shu bilan bir vaqtda charm teri to'qimani yaxshi sifatini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar "KARA DERI" MCHJ korxonasining tajriba-eksperimental sexida bajarildi. Bunda yirik shoxli mol terilariga tajriba va nazorat usullarida ishlov berildi. Buning uchun korxona tajriba eksperimental sexida ishlab chiqarish partiyalarini oshlash amaliyoti o'tkazildi. Nazorat namunalariga an'anaviy texnologiya usuli bilan, tajriba namunalarida esa furfurol oshlovchisi asosida ishlov berildi. Ishlov berish jarayonida faqat oshlash jarayoni o'zgartirildi va iqtisodiy samaradorlik oshlash jarayonida qullanilgan kimyoviy reagentlar miqdori orqali hisoblandi.

Keltirib o'tilgan yirik shoxli mol terilariga ishlov berishning texnologik reglamenti va texnologik sxemasiga asoslangan holda "KARA DERI" MCHJ korxonalari ishlab chiqarish sharoitlarida furfurol (optimal III-variant)ni yirik shoxli mol terilariga ishlov berish texnologiyasining oshlash jarayonida qo'llash orqali charm ishlab chiqarildi va tayyor charmning fizik-kimyoviy va mexanik ko'rsatkichlari 6-jadvalda keltirildi.

**Takomillashtirilgan texnologiya asosida oshlangan yirik shoxli mol teri
namunalarining sifat ko'rsatkichlari va GOST talablariga mosligi**

№	Ko'rsatkichlarning nomlanishi	O' lchov birliklar	ООО«TOLUT CHARM» MCHJ	“ KARA DERI” MCHJ	GOST 939-2021	
					Me'yor	Me'yor
1	Gidrotermik destruksiya	°C	116,0	116,0	kam emas	100
2	Namlik miqdori	%	13,4	13,4	ko'p emas	10,0- 16,0
3	Teri to'qimasida xrom oksid miqdori	%	2,5	2,5	ko'p emas	3,0
4	Yog' moddalar miqdori	%	5,4	5,4	ko'p emas	4,0-16,0
5	Teri to'qimasi suv ekstraktining pH darajasi	pH	4,5	4,5	kam emas	4,0-7,0
6	Teri to'qimasining mustahkamlik chegarasi	MPa	40,4	40,4	kam emas	1,5

6-jadvalda taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra ООО«TOLUT CHARM» MCHJ va “KARA DERI” MCHJ korxonalarida taqdim etilgan ma'lumotlarga bionan, taklif etilgan texnologiya bo'yicha ishlab chiqilgan yirik shoxli mol terisi miyoriy-texnik hujjatlarning fizik-mexanik xamda kimyoviy talablariga muvofiq kelganligi tajriba sinov natijalarida keltirilgan.

Yirik shoxli mol terilariga ishlov berish texnologik jarayonlarida furfurolni qo'llashdan kutiladigan iqtisodiy samaradorlik hisoblab chiqildi. Bunda 35 dona yirik shoxli mol terilarini oshlash jarayonida foydalaniladigan kimyoviy moddalardan kutiladigan iqtisodiy samaradorlik 106497,0 so'mni, agar charm ishlab chiqarish korxonasida o'rtacha yiliga 720 partiya yirik shoxli mol terilariga ishlov berilsa, faqatgina oshlash jarayonida qullaniladigan kimyoviy reagentlar hisobiga bir yilda kutiladigan iqtisodiy samara 76677840 so'm kutilishi aniqlandi.

XULOSA

1. Furan birikmalarining oshlovchilik xususiyatini tadqiq etish natijasida furfurol bilan oshlangan charm namunasining gidrotermik barqarorligi yuqori chiqdi va optimal variant sifatida tanlab olindi;

2. Yirik shoxli mol teri kollageni bilan furfurolni o'zaro ta'sirlashuvining IR- spektr, DSC va rentgenografik tahlil natijalari tahliliga asosan furfurol kollagen bilan mustahkam bog'lar hosil qilganligi aniqlandi.

3. Furfurol asosida yirik shoxli mol terilarini oshlash texnologiyasini qo'llash natijasida yirik shoxli mol teri xom-ashyosini oshlash texnologiyasi parametrlari ishlab chiqilib, texnologiya asosida ishlov berish orqali tayyor mahsulotning fizik-kimyoviy xossalari davlat standart talablariga mos ekanligi aniqlandi.

4. Furfurol asosida oshlangan yirik shoxli mol terisining gidrotermik destruksiya harorati nazorat variantiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

5. Yirik shoxli mol terisining adsorbsion tahlil natijalariga asosan nazorat namunasiga nisbatan tajriba namunasi g'ovak radiusi kichik ekanligi aniqlandi.

6. Tayyor charm gidrotermik destruksiya haroratining ortishi bilan bir qatorda, charmning mexanik xossalari: mustahkamlik ko'rsatkichi xamda, uzilishdagi uzayishi oshishiga erishildi.

7. Tadqiqotlar asosida OOO "TOLUT CHARM" MCHJ va "KARA DERI" MCHJ korxonasi ishlab chiqarish sharoitlarida furfurolni yirik shoxli mol terilariga ishlov berish texnologiyasida qo'llash asosida ekspluatatsion xossalari yaxshilangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga erishildi, hamda yillik iqtisodiy samaradorlik 76 677 840 so'mni tashkil etishi hisoblab chiqildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

БУРХОНОВ ДАВРОНБЕК БОТИРАЛИ УГЛИ

**ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И СВОЙСТВА КОЖ
ДУБЛЕННЫХ ФУРАНОВЫМИ СОЕДИНЕНИЯМИ**

**05.06.03 - Технология кожи, меха, обуви и кожевенно-галантерейных изделий
(технические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/15409.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ttyesi.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Кодиров Тулкин Жумаевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Адилов Ровшан Иркинович
доктор технических наук, профессор

Худанов Улугбек Ойбутаевич
доктор философии технических наук, доцент

Ведущая организация:

**Бухарский государственный технический
Университет**

Защита диссертации состоится 23 января 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании разового Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском Институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, ул. Шохжахон-5. Тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 268-06-08, факс: (99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edui.uz. Административное здание ТИТЛП, 2-этаж, 222-аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, ул. Шохжахон-5. Тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edui.uz) (зарегистрирована за № 268)).

Автореферат диссертации разослан 08 января 2026 года.
(Реестр протокола рассылки № 268 от 08 января 2026 года).



Х.Х. Камилова
Председатель разового Учёного совета по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

А.З. Маматов
Ученый секретарь разового Учёного совета по
присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

Н.Б. Мирзаев
Председатель разового научного семинара при научном
совете по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется проблемам снижения количества хромных дубителей, которые плохо растворяются в воде и отравляют водоемы, что приводит к экологическим проблемам в технологии обработки кожевенного и мехового сырья. В настоящее время в развитых странах основными производителями и поставщиками шкур животных на мировом рынке являются Китай, Бразилия, Индия, Аргентина, которые занимают одно из лидирующих мест. В мировом масштабе более 90% кожевенно-меховых изделий производится с участием хромовых дубителей. В связи с этим особое внимание уделяется технологии глубокой обработки кожи и повышению качества готовой продукции на основе дубителей, которые хорошо растворяются в воде, не отравляют сточные воды, не оказывают негативного воздействия на здоровье человека, легко образуют химические связи со структурными элементами кожи и не смываются со структуры кожи.

В настоящее время во всем мире проводятся научные исследования, направленные на совершенствование технологии дубления кожевенного сырья крупного рогатого скота. В этом направлении, в частности, приоритетными считаются научные исследования, проводимые в направлении создания дубителей, дающих комплексные химические, физико-механические и гигиенические свойства в структуре кожи крупного рогатого скота и их применение в технологии дубления. Следовательно, актуальной задачей является снижение количества токсичных соединений хрома, использование альтернативных материалов, создание технологий, улучшающих качество продукции и повышение эффективности производства.

На основе переработки кожевенно-мехового сырья, выращиваемого в нашей республике, осуществляются широкомасштабные мероприятия, направленные на повышение экспортного потенциала за счет подготовки меховых изделий, совершенствования технологий производства, в том числе расширения ассортимента конкурентоспособной и дорогой кожи в результате глубокой переработки кожевенного сырья. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены такие важные задачи, как "...продолжение промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности экономики и увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, увеличение объема производства промышленной продукции в 1,4 раза"¹. Реализация этих задач имеет важное значение для эффективного использования местного сырья-кожи крупного рогатого скота, производства экспортоориентированной и конкурентоспособной кожевенной продукции с улучшенными свойствами.

Данная диссертационная работа в определенной степени способствует реализации задач, определенных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан, от 03.05.2018 г. №ПП-3693 «О мерах по дальнейшему

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года ПФ № 60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

стимулированию развития и роста экспортного потенциала кожевенно-обувной и пушно-меховой отраслей», №ПП-331 "О мерах по дальнейшему ускорению реформ и повышению экспортного потенциала кожевенно-обувной и меховой отраслей" от 11 октября 2023 года, от 8 февраля 2021 года № ПП-4982 "О дополнительных мерах по дальнейшему развитию кожевенно-обувной и пушно-меховой отраслей" и от 20 мая 2024 года №ПП-181 "О мерах по поднятию на новый этап развития кожевенно-обувной, шелководческой отраслей и отрасли ковроткачества", а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование соответствует приоритетному направлению развития науки и технологий республики IV. "Нанотехнологии и химические технологии".

